

## O‘ZBEK TILSHUNOSLIGINING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI

*Majidova Shahnoza Komilovna*

*TerDPI katta o‘qituvchisi*

*Ashurova Muhayyo Rustam qizi*

*TerDPI 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola orqali bugungi kundagi tilimizda mavjud bo‘lgan dolzarb masalalar shuningdek, aholi ayniqsa yoshlar orasida imloviy savodxonlikning bo‘lmasligi, so‘zlashuv usulida tilimizga turli g‘aliz so‘zlarning qo‘shib foydalanishi kabi muamolarni yoritish eng oliy maqsad sifatida olingan.

**Kalit so‘zlar:** tilshunoslik, lingvistik hodisalar, til birliklari, nazariy tilshunoslik, amaliy tilshunoslik,

Til-millatning quyoshi. Til bor ekan butun bir jamiyat, xalq bor. Xuddi shunday ekan, bizning tilimiz ham uzoq yillar, asrlardan buyon shakllanib kelayotgan tillardan biri hisoblanadi. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyev va boshqalarning hamkorligidagi “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobida o‘zbek tilining shakllanishi xususida shunday deyilgan: “O‘zbek xalqining shakllanishi va nomlanish tarixi masalasi qadimiyligi jihatdan tilining ham ravnaq topganini ko‘ramiz. Millat sifatida mavjud nom – o‘zbek etnomini xalqimiz rasmiy ravishda XX asrning boshlarida olgan bo‘lsa-da, hozirgi O‘zbekiston hududida o‘zbek millati etnik asosining shakllanishi uzoq asrlarga borib taqaladi.” Darhaqiqat tilimizning qadimiyligi uning shakllanishi tarixi uzoqligini ko‘plab asar namunalardan bugungi kungacha yetib kelganlarini o‘qib ham bunga amin bo‘lishimiz mumkin. Markaziy Osiyoda ilk o‘rta asrlar madaniyatining buyuk arboblardan biri tilshunos, adabiyotshunoslik fanlarining asoschisi Mahmud Qashg‘ariyning asaridan ham bilsak bo‘ladi. Tilshunoslik umuman olganda lingvistika bu tilning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadi. Mahmud Qashg‘ariy o‘zining “Devoni lug‘atit turk” asarida tilshunoslik fanning nazariy masalalari to‘g‘risida ilmiy qarashlarini bayon qilgan. Tilshunoslikning nazariy masalalari quydagilarni o‘z ichiga oladi: tilning grammatik ma’nolarini morfologiya sintaksis fonetika fonologiya leksikologiya va frazeologiya kabilarni kiritamiz. Men uchun tilshunoslikning xoh amaliy masalasi bo‘lsin, xoh nazariy masalasi bo‘lsin har ikkalasida ham olib borilgan tadqiqot ishlarning asoschisi deymizmi targ‘ibotchisi deymizmi barchasida Alisher Navoiy va Mahmud Qashg‘ariy misol tariqasida olaman. Nega degan savol berilishi tabiiy hol albatta. Chunki tilni xalq jamiyat yaratadi. Ma’lumot keltirilishicha Mahmud Qashg‘ariy o‘zining “Devoni lug‘atit turk” asarining yozilishi uchun 15-20 yillar mobaynida to‘plangan manbalar asosida yaratgan. Ushbu asar 2 yil mobaynida yozilgan asar hisoblansada tilshunoslikning

noyob namunalaridan sanaladi. Qashg‘ariy asosan turkiy tillarning grammatikasi yuzasidan samarali ishlar olib brogan. Bundan tashqari u “Javohir-un-nahvfi lug‘atit turk” (Turkiy tillarning nahv sintaksis durdonalari, qoidalari) deb ataladi. Ammo ushbu asar bizgacha yetib kelmagan. Alisher Navoiyning ham tilshunoslik nazariyasiga oid “Muhokamat ul-lig‘atayin” asari o‘zbek tilining boyligi, qudratini, sehrini yana bir karra tilimizning jozibadorligining yaqqol isbotidir. Bugungi kunda ham tilshunosligimizning nazariy va amaliy masalalari borasida olib borilayotgan ishlar davom etmoqda. Masalan, O.Yusupova, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.H.Qurbonova, B.Umurqulov va boshqa tilshunos olimlarning bir qancha ilmiy ishlarida ko‘rishimiz mumkin. R.Sayfullayeva tilshunoslikning nazariy masalasida ko‘plab o‘z ishlarini olib borgan. Masalan: “Morfema tuzilishiga ko‘ra sodda va murakkab turiga bo‘linadi. Sodda morfema, Murakkab morfema turlaridir. Sodda morfemalar bir tarkibli morfemadir. Murakkab morfemada esa bir nechtani hosil qiladi.” Bunday ilmiy qarashlar juda ko‘p yana tilshunos olim masalan, Ne‘mat Mahkamov, Azim Hojiyevlar “Morfemalarning asosiy vazifasiga ko‘ra turlarini 2 ga bo‘ladi so‘z yasovchilar va so‘zning shaklini yasovchilarga” bo‘linishidir. O‘zbek tilining nazariyasini o‘rganish faqatgina tilshunos filologlarning vazifasi bo‘lsa, ammo amaliy tilshunoslikning rivojlanishi har bir insonning vazifasi hisoblanadi. Bilamizku, bugun qayerga bormaylik turli e‘lonlarning, reklamalarning nafaqat ularda balki, ommaviy axborot vositalaridagi xabar va yangiliklarning ayrimlari imloviy xato yozilganligining guvohi bo‘lamiz. Bu qaysidur ma‘noda tilimizga putur yetishiga sabab bo‘lmaydimi. Eng achinarlisi bularga deyarli hech kim e‘tibor bermay, ahamiyatsiz narsadek qaralayabdi. Menimcha, bu kabi muammolarni bartaraf etish uchun bularni maktab davridanoq o‘quvchilarda imloviy savodxonligini oshirish maqsadida deyarli barcha fanlarda dars jarayonlarida fan bilan bog‘liq atamalarni yozdirib, ularning savodxonligini oshirsa bo‘ladi. Yanayam olib qaraydigan bo‘lsak dolzarb muammolardan yana biri bu yoshlar o‘rtasida o‘zimizning sof betakror o‘zbek tilimizga turli xil g‘aliz, vulgar, argon, jargon va parazit so‘zlarni so‘zlashuv uslubida kundalik turmushda muloqatda haddan ziyod ko‘p qo‘llanilishi ham amaliy muammolardan biri deb o‘ylayman. Tilimizning ravnaq topishi nafaqat olimlar-u tadqiqotchilarning vazifasi balki shu vatanda istiqomat qilayotgan yoshlar, keksalarning ham zimmasida. Umumiy olib qaraydigan bo‘lsam men o‘zbek tilining amaliy masalalari deganda yuqorida sanab o‘tgan ba‘zi bir muammolarni tushunaman. Negaki, bular faqat nazariy o‘rganilmaydi, nazariydan o‘rganilgan narsalarning amalyotda qo‘llanilishi. Amalyot esa juda muhim hisoblanadi. Kimlar uchundur amaliy masalalar, imlo savodxonlikning oshirilishi, tilning to‘g‘ri, nutqning ravonligi muhim emasdur, lekin men uchun o‘zbek tilining nazariysidan ham amaliysi muhimdir. Nazariya bilan bog‘liq muammolarni hal etish uchun o‘z mutaxassislari,

olimlari mavjud amaliy bilan bo‘liq muammolar ustida shug‘ullanish uchun bir yoki ikki kishi yetarli emas.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abuzalova Toshkent-2009
2. O. Yusupova “Nazariy tilshunoslik masalalari” fanidan o‘quv-uslubiy majmua. Samarqand-2021
3. Mahmud Qoshg‘ariy “Devoni lug‘atit turk” www.ziyouz.com kutubxonasi
4. Majidova Shahnoza Komilovna, & Normamatova Husnora Shomamat qizi. (2024). XUSUSIYAT BILDIRUVCHI SIFATLARLARNING LEKSIK VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI. *PEDAGOGS*, 57(1), 153–157.
5. Majidova Shahnoza. (2023). GIDRONIMLAR LISONIY QIMMATGA EGA BO‘LGAN TIL BIRLIGI SIFATIDA. *Proceedings of International Educators Conference*, 2(1), 648–653.
6. Majidova Shahnoza Komilovna, Ne‘matova Jahonbibi Davron qizi. (2024). FEATURES OF THE USE AND EXPRESSION OF THE WATER LAXEM IN THE WORKS OF M. KOSHGARI, Y.H.KHAJIB, Z.M.BABUR. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(01).
7. Shaxnoza Majidova. (2021). HISTORY OF THE STUDY OF HYDRONYMS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 676–680.
8. Mardonova Lobar Umaraliyevna, & Axmedova Dilbar Abdulkarimovna. (2023). Ta’lim jarayonida o‘z - o‘zini boshqarish va o‘z ustida ishlash, shaxsiy pedagogik tajriba to‘plash tizimi. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(2), 154–162.
9. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO‘Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, 1(4), 34–37.
10. Sahkiba Saidmuradova, & To‘lqinova Madina. (2024). ALISHER NAVOIY SHE‘RIYATI POETIKASI. *PEDAGOGS*, 57(1), 147–152.
11. Avriddinov Jobir Musulmon o‘g‘li, & Shonazarova Madinabonu Xamrobek qizi. (2024). RO‘DAKIYNING SHE‘RIYATI VA TILI HAQIDA BA‘ZI MULOHAZALAR. *PEDAGOGS*, 57(1), 143–146.
12. Najibullo Sayfullayev. (2023). TERMS ARE AN INDIVIDUABLE WEALTH OF OUR LANGUAGE. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(10), 168–170.
13. Сайфуллаев Нажибулло. (2023). ТЕРМИНЫ – НЕОТЪЕМЛЕМОЕ БОГАТСТВО НАШЕГО ЯЗЫКА. *PEDAGOGS*, 46(1), 67–69.

- 14.Parda Alimov. (2023). Muhammad Yusuf ijodida Vatan, ona, muhabbat mavzularining badiiy talqini. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(1), 63–75.
- 15.Nodira Hamidova. (2024). G‘AFUR G‘ULOM HIKOYALARIDA SO‘Z IJODKORLIGINING LISONIY-KOGNITIV TAHLILI. *PEDAGOGS*, 57(1), 139–142.
- 16.Qurbonova Gavhar Xurramovna, & Avazova Dilfuza. (2024). ABDULLA ORIPOV SHE‘RIYATIDA O‘XSHATISHLAR. *PEDAGOGS*, 57(1), 158–160.
- 17.Nigora Jo‘ranazarova Qurbonboy qizi, & Qahhorova Dinora Shuhrat qizi. (2024). XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV ASARLARIDA O‘XSHATISH VA METAFORANING KONTEKSLARDAGI O‘RNI. *PEDAGOGS*, 57(1), 161–167.